



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ILMIY MAKTABI

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

LABOUR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

scientific electronic journal

2023 yil, 2-son
Volume 3, Issue 2, 2023



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI



LABORECONOMICS.UZ

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

№ 2-2023

ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ
КАПИТАЛ

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi,
49 uy

Elektron manzil: ilmiymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog‘lanish uchun telefonlar:

+998998818698

TOSHKENT-2023

Tahririyat Kengashi raisi:**(Chairman of the Editorial Board)**

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:**(Members of the Editorial Board)**

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.
Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d., prof.
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d, prof.
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d., prof.
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)
Xolmumammedov Muhsinjon Murodullayeviyya, i.f.n., dots.
Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.f.d., (PhD), dots.
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:**(Community Council members)**

Bred Bodenxauzen (AQSh)
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)
Keynz Miller (AQSh)
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)
Masato Xivatari (Yaponiya)
Gerxard Feldmayer (Germaniya)
Eko Shri Margianti (Indoneziya)
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)
Rohana Ngah (Malayziya)
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)
Teguh Dartanto (Indoneziya)
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)
Muhammed Xoliq (Pokiston)
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief): G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich**Veb-administrator (Web admin):** Musayev Xurshid Sharifjonovich

MUNDARIJA (CONTENTS)**MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

Q.X.Abdurahmonov	<i>Transformatsion iqtisodiyotda mehnat bozorini sun'iy intellekt vositasi asosida rivojlantirish.....</i>	5-19
Z.G.Shakarov	<i>Sun'iy intellektni inson kapitali va mehnat bozoriga ta'sirini ekonometrik baholash.....</i>	20-31
S.B.G'oyipnazarov	<i>Макроэкономические тенденции занятости населения Узбекистана.....</i>	32-49
N.T.Shayusupova	<i>Мехнат bozori va inklyuzivlik tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.....</i>	50-64
S.S.Amirdjanova	<i>Обоснование перечня видов деятельности и профессий, востребованных в экологически ориентированной экономике.....</i>	65-73
T.A.Mahmudov	<i>Hududlar mehnat bozori ehtiyoji asosida kadrlar tayyorlash.....</i>	74-86

INSON RESURSLARINI BOSHQARISH

G.Q.Abdurahmanova	<i>Mahalliy davlat boshqaruv organlarida inson resurslarini boshqarish.....</i>	87-102
O.T.Astanakulov	<i>O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlariga kadrlarni jalb qilish va yollash tizimi.....</i>	103-117

INSON KAPITALI

S.A.Bozorova	<i>Kraudfanding platformasida ayollar inson kapitalini rivojlantirish yo'nalishlari.....</i>	118-131
S.A.Gafurjanova	<i>Развитие человеческого капитала как фактор снижения бедности.....</i>	132-140
D.I.Iskandarova	<i>Human capital development is the basis of society's development.....</i>	141-150

INSON TARAQQIYOTI

Sh.U.Jo'rayeva	<i>Yangi O'zbekistonda aholi turmush darajasining tahlili.....</i>	151-158
-----------------------	--	---------

MIGRATSIYA

B.A.Islamov	<i>O'zbekistonda mehnat migratsiyasi jarayonlarini raqamlashtirishning yangi imkoniyatlari.....</i>	159-174
S.S.Gaziyeva	<i>Tashqi mehnat migratsiyasiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....</i>	175-190

TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

Z.M.Jabborova	<i>Jizzax viloyatida kichik biznes va tadbirkorlik sohasida aholi ish bilan bandligini ta'minlash hamda investitsiyalar samaradorligini oshirish yo'llari.....</i>	191-199
----------------------	--	---------

MUNOSIB MEHNAT

S.P.Qurbonov	<i>Xalqaro mehnat bozorida unumli bandlik va bandlik tarkibidagi qiyosiy xususiyatlar.....</i>	200-212
F.A.Doniyorova	<i>Iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlashda aholini ish bilan bandlik darajasini oshirish.....</i>	213-225
N.R.Saidov	<i>Aholini ish bilan bandlik va ishsizlik holati tahlili.....</i>	226-232



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

<https://laboreconomics.uz/>



JIZZAX VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SOHASIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Jabborova Zaynab Mamasodiqovna

Jizzax politexnika instituti

“Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi katta o‘qituvchisi

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a13

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jizzax viloyatida investitsiyalar samaradorligining tadbirkorlik sohasida aholi ish bilan bandligini oshirish imkoniyatlari yoritilgan. Bunda investitsiyalar samaradorligining tadbirkorlik sohasida aholi ish bilan bandligini oshirish imkoniyatlari Jizzax viloyatida tumanlar bo'yicha sohalar asosida rivojlantirish imkoniyatlari keltirilgan

Kalit so'zlar: ishchi kuchi, yangi ish o'rinlari, kichik biznes va tadbirkorlik, “drayver” sohalar, investitsiyalar.

ПУТИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ И ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИЙ В СФЕРУ МАЛОГО БИЗНЕСА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ

Джаббарова Зайнаб Мамасадиқовна

Джизакский политехнический институт

Старший преподаватель кафедры «Экономика и менеджмент»

Аннотация: В данной статье выделены возможности повышения занятости населения в сфере предпринимательства при эффективности инвестиций в Джизакской области. Представлены возможности повышения занятости населения в сфере предпринимательства, эффективности инвестиций, возможности развития Джизакской области на отраслевой основе.

Ключевые слова: рабочая сила, новые рабочие места, малый бизнес и предпринимательство, «драйверные» отрасли, инвестиции.

WAYS TO ENSURE THE EMPLOYMENT OF THE POPULATION AND INCREASE THE EFFICIENCY OF INVESTMENTS IN THE FIELD OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP IN JIZZAKH REGION

Jabborova Zaynab Mamasodikovna

Jizzakh Polytechnic Institute

Senior teacher of the "Economics and Management" department

Abstract: This article highlights the possibilities of increasing the employment of the population in the field of entrepreneurship with the effectiveness of investments in the Jizzakh region. By this, the possibilities of increasing the employment of the population in the field of entrepreneurship, the efficiency of investments, the possibilities of development in the Jizzakh region on the basis of sectors are presented.

Key words: workforce, new jobs, small business and entrepreneurship, "driver" sectors, investments.

Kirish

Investitsiyalar barcha xalqaro operatsiyalarni amalga oshirishda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun muhim ahamiyatga ega. Xorijiy investitsiyalarga asosan moliyaviy muammolarni yechish uchun murojaat qilinadi. Xorijiy korporatsiyalarning moliyaviy bo‘limlari mablag‘lardan qisqa muddatli investitsiyalar qatorida yuqori foyda olish maqsadida foydalanish moddiy manfaatdorlikni belgilashga olib keladi. Bunday investitsiyalar ko‘pincha xususiy tadbirkorlar kapitaliga asoslangan, ba’zida esa o‘z qimmatbaho qog‘ozlarini chiqaradi va xorijiy qimmatbaho qog‘ozlarini sotib oladi.

O‘zbekiston xorijiy investorlar bilan tengma-teng iqtisodiy aloqalar olib borish asosida sherikchilik munosabatlarini olib boradilar. Har qanday investitsiyalar mamlakatimizga kirib kelishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Agar kirib kelayotgan investitsiyalar mamlakatimiz iqtisodiyotiga uning rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratsa, bunday xorijiy investitsiyalar yurtimizga birinchilar qatorida kirib keladi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, qulay investitsion iqlim shakllanmasdan va xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga faol jalb etmasdan turib, bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlar jahon iqtisodiy hamjamiyatiga muvaffaqiyatli integratsiyalasha olmaydi.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida innovatsiyalarni jadal rivojlantirishga muhim ahamiyat berilib, o‘rta muddatli istiqbolda fan sohasidagi davlat siyosatining maqsadli vazifalari va ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida¹ “ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish” belgilandi. Bu esa ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini moliyalashtirish, innovatsion faoliyatni iqtisodiy

¹2017-2021 –yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. www.lex.uz

va moliyaviy rag‘batlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili

Mehnat munosabatlarining ilmiy-metodologik jihatlari ko‘plab xorijlik olimlardan J.M.Keyns, A.Smit, L.Chijova, D.Rikardo T.Maloun, M.Fridman, D.Greber va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Mehnat munosabatlari, mehnat bozori faoliyatini tartibga solish kabi masalalar yuzasidan MDH mamlakatlari olimlaridan A.Kibanov, V.Bobkov, V.Bulanov, N.Volgin, V.Gimpelson, T.Zaslavskaya, Yu.Odegov, G.Rudenko, N.Rimashevskaya, A.Rofe va boshqalar e‘tiborga loyiq ilmiy takliflarni ilgari suradilar.

O‘zbekistonda mehnat munosabatlariga doir ilmiy izlanishlar Q.Abdurahmonov, B.Umurzakov, Z.Xudoyberdiev, N.Zokirova, G.Abduraxmanova, Sh.Kudbiev, R.Xasanov, D.Raximova, N.Arabov, J.Bobanazarova, D.Nasimov, A.Irmatova, A.Kucharov va boshqa olimlar, tomonidan olib borilgan.

Akademik Q.X.Abduraxmonovning fikricha “Mehnat munosabatlari – xodim va ish beruvchi o‘rtasida ish beruvchi zarur mehnat sharoitlarini yaratib bergan holda haq to‘lanishi hisobiga xodim tomonidan shaxsan mehnat funksiyasini (shtat ro‘yxatiga muvofiq, kasbi, ixtisosligi bo‘yicha topshiriladigan aniq ishni) bajarish yuzasidan kelishuv natijasida paydo bo‘ladigan munosabatlardir. Mehnat munosabatlarining sub'ektlari – xodim va ish beruvchi hisoblanadi. Mehnat munosabatlari ijtimoiy xususiyat kasb etganda, ushbu sub'ektlar qatoriga davlat ham qo‘shiladi (Abduraxmonov Q.X., 2019)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarida ish bilan bandlikning egiluvchan shakllari - qisman ish bilan bandlik, ish joyini taqsimlash, moslashuvchan ish grafigi, egiluvchan va virtual ish joyi iqtisodiy faol aholini munosib ish bilan ta'minlashning samarali yo‘li bo‘lib, u ish beruvchilarga iqtisodiy vaziyat, bozor konyunkturasiidan kelib chiqqan holda, ishlab chiqarishning yo‘nalishini, xodimlarning soni va tarkibini qisqa muddatda o‘zgartirishga yordam beradi (Abduraxmonova G.Q., 2016)

Kichik korxonada ijtimoiy-mehnat munosabatlarini qaror topishi to‘g‘risidagi masalani qamrab chiqishda, hududda ijtimoiy soha va korxonada o‘rtasidagi hamkorlik tamoyili (qishloq, shahar, tuman) aholisi va korxonada ishlovchilarining ijtimoiy himoyasini bir-biri to‘ldirib borishiga imkon yaratadi. Demak, hudud ijtimoiy sohasi va korxonadagi ijtimoiy munosabatlar qanchalik rivojlangan bo‘lsa, ular o‘rtasidagi aloqadorlik mustahkam bo‘lsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shunchalik jadal rivojlanib boradi (Ulug‘muradova N., 2021)

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida taqqoslash, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, va prognozlashtirish kabi usullari qo‘llanilgan.

Tahlil va tadqiqot natijalari tahlili

Makroiqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri milliy iqtisodiyotda investitsiyalarning samarali joylashtirishidir. Investitsiyalarning yuqori samara keltirishi takror ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Harakatlar strategiyasining «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishida korxonalarining mablag'lari, tijorat banklari krediti, xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga 2017–2021-yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSH dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlari amalga oshiriladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek "...iqtisodiy o'sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko'paytirish orqali erishiladi. Garvard universiteti tadqiqotlariga ko'ra, mamlakatimiz 50 dan ortiq sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda barcha imkoniyatlar va nisbiy ustunliklarga ega. Ayniqsa, neftgaz-kimyo, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, farmatsevtika, qurilish materiallari, to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat hamda "yashil iqtisodiyot" bilan bog'liq sanoat tarmoqlari iqtisodiyotimiz "drayverlari"ga aylanishi uchun barcha yetarli sharoitlar mavjud". Umuman olganda, kelgusi yilda 23 milliard dollar qiymatidagi investitsiyalarni o'zlashtirish zarur. Natijada 226 ta yirik sanoat va infratuzilma ob'ektlari ishga tushiriladi.

"Mehnat kichik biznesning rivojlanganligi darajasi va tadbirkorlarning faolligi davlatning demokratlashtirilishi va milliy iqtisodiyot ochiqligi, ishbilarmonlik muhiti asosiy mezonlardan biridir. Iqtisodiyotning bu sektoridagi raqobat tovarlar va xizmatlar narx-navosini barqaror ushlab turishga, tadbirkorlarning mahsulot sifatini muttasil yaxshilab borish va yangi texnologiyalarni joriy qilishga undaydi"². Kichik biznesning ulkan salohiyati uni moddiy, moliyaviy va inson resurslari va kapitali qatori ishlab chiqarishning asosiy omillardan biri ekanligining ilmiy asoslari tadqiq qilingan.

Jizzax viloyatida 2021*yilda 515 ta loyiha amalga oshirilib, ularning umumiy qiymati 35 trn. 500 mlrd. so'm bo'lib, ularning natijasida yiliga 25 trln. so'mlik mahsulot tayyorlash quvvatiga ega korxonalar, qariyb 23 ming ish o'rini tashkil etildi. 264 mln. dollarlik import o'rnini bosish hamda 311 mln. dollarlik eksport imkoniyati yaratildi. Jizzax viloyatida qurilish materiallari, avtomobilsozlik va to'qimachilik sanoati hamda qishloq xo'jaligi tarmoqlari katta salohiyatga ega. Loyihalarni shakllantirishda ushbu sohalar "drayver" sifatida belgilab olingan. Masalan, qurilish materiallari sanoatida 8 ta loyiha rejalashtirilgan. Ulardan biri – bazalt tolasi va undan turli materiallar ishlab

²Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti nazariya va amaliyot. Darslik.-T.: O'zR FA "Fan", 2019. – 475 b -569 b.

chiqarishga qaratilgan. 723 milliard so‘mlik mazkur loyiha uchun bugungi kunda yer ajratilgan. Korxonalar shu yil uchinchi chorakida ishga tushirilib, 205 ta ish o‘rni ochildi.

Shuningdek, yuqori markali sement, beton plitalar, armaturalar, geotekstillar ishlab chiqarish bo‘yicha ham istiqbolli loyihalar bor. Avtomobil sanoatida ham loyihalar ko‘zda tutildi. Masalan, mikroavtobus, tijorat va yuk avtomobillari ishlab chiqarish bo‘yicha loyiha ichki bozor uchun g‘oyat zarur. Bu korxonalar joriy yil yakunida foydalanishga topshirilib, 500 kishi ish bilan ta‘minlandi.

Jizzax shahrida tashkil etiladigan to‘quvchilik majmuasi mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash, xotin-qizlar bandligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. 39 mln. dollarlik mazkur korxonalar qurilishi 2021-yil boshlanib, kelgusi yil ishga tushirilishi belgilangan.

Sirdaryo viloyatida esa 737 ta loyiha shakllantirilgan bo‘lib, ularning umumiy qiymati 25 trln. 500 mlrd. so‘m bo‘lib, shundan qariyb 900 mln. dollarini xorijiy investitsiyalar tashkil etildi. Loyihalar natijasida yiliga 11 trln. so‘mlik ishlab chiqarish quvvati, qariyb 36 ming ish o‘rni yaratish maqsad qilindi. Yana bir muhim tomoni, yangi korxonalar 326 mln. dollarlik mahsulot eksport qilish, 124 mln. dollarlik import o‘rnini bosish imkonini beradi. Loyihalarni shakllantirishda to‘qimachilik, qurilish materiallari, farmatsevtika va oziq-ovqat sanoati “drayver” sifatida belgilab olingan.

Ijtimoiy tadbirkorlik keng doirada rivojlanib bormoqda va bu faoliyat muhojirlarga yordam berish, insoniylik, himoyalash kabi prinsiplarga asoslangan. Ijtimoiy tadbirkorlik orqali hudud, mahalladagi ijtimoiy masalalarni hal qilibgina qolmay, yangi ish o‘rinlar yaratib, ish bilan bandligini ta‘minlash va aholi doramadlarini oshirishga erishish mumkin. Uni rivojlantirishda drayver loyihalarni amalga oshirish ham yaxshi samara beradi (1-jadval)

1- jadval

Jizzax viloyati bo‘yicha 2022-2023 yillarda mahalla drayverlari soni

Mahalla drayverlari:	Dehqonchilik va issiqxona - 88 ta Ishlab chiqarish va xunarmandchilik - 11 ta Bog‘dorchilik – 26 ta CHorvachilik – 99 ta Savdo va xizmat ko‘rsatish- 76 ta Boshqalar – 2 ta
----------------------	--

Mahallalarda “drayver” loyihalarni amalga oshirishda tadbirkorlarga ko‘maklashish va shu orqali yangi ish o‘rinlarini tashkil bo‘yicha quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

- mahallalarda mavjud tadbirkorlarning muammolarini yechishga hamda iqtisodiy o‘rinishning drayver sohalarida yangi tadbirkorlik loyihalarni amalga oshirishga ko‘mak berish;

- tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan fuqarolarga biznes loyihalarni tayyorlashda maslahat, ko'mak berish va uni amalga oshirish jarayonlarini doimiy monitoring qilib borish;

- oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratilayotgan kreditlar samaradorligini oshirish bo'yicha zarur choralar ko'rish;

- tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagidagi fuqarolarni biznes asoslariga o'qitish tizimini tashkil etish va ularni tadbirkorlikka yo'naltirish;

- xizmat turlari bo'yicha mas'ul etib birlashtirilgan tijorat banklari bilan birgalikda mahallalarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va uning yangi turlarini ko'paytirish bo'yicha tegishli loyiha takliflarini tayyorlash;

- mahallalarda tadbirkorlar loyihalariga kreditlar ajratishda Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining moliyaviy xizmatlaridan keng foydalanishga ko'maklashish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5853-son Farmoniga asosan, mazkur strategiyaning asosiy maqsadi - investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, aholi ish bilan bandligini oshirishga erishish, kadrlar salohiyatini oshirish³.

Hozirgi kunda jahonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi jadal sur'atlar bilan amalga oshmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi iste'molchilar talabini to'liq qondirish va iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish imkonini beradi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bugungi kunda ish bilan bandlikni ta'minlashning yangi yo'nalishlari paydo bo'lmoqda. Ish beruvchilar ixtiyoriy ravishda va xohishiga ko'ra xodimlarni ishga yollash imkoniga ega bo'lmoqdalar va geografik joylashuvi hamda vaqtdagi farq ahamiyatga ega emas. Xodimlar axborot texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib o'z vazifalarini bajarishga qodir bo'lib, uydan tashqariga chiqmasdan, har qanday vaqtda belgilangan vazifani bajarish imkoniga ega bo'lishmoqda.

Raqamli texnologiyalar xodimni yuqori malaka va bilim bilan birga mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni va mehnat faoliyatini mustaqil ravishda amalga oshirishni talab qilmoqda. Endilikda xodim o'z mehnat faoliyatini o'zi tartibga soladi, mehnat haqi Internet orqali amalga oshiriladi. Xodimni mehnat faoliyatining tashqi nazorati uning o'zini jalb etmagan holda ma'lumotlar, hisobotlar orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida ish bilan bandlik sohasida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'layotganligi zamonaviy bilim va malaka ko'nikmalariga ega bo'lgan mutaxassislariga talab muntazam ravishda ortib borayotganligining isbotidir. Bunda xodimlarning ish joylari va mehnat sharoitlarida ham o'zgarishlar yuzaga kelmoqda. Raqamli iqtisodiyotga o'tish ish bilan bandlik tarkibining o'zgarishi, xodimlar intellektual salohiyatidan samarali foydalanish hamda innovatsion jarayonlar samaradorligini oshiruvchi

³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrda “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5853-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.10.2019y., 06/19/5853/3955-son.

omillar ta'sir darajasining kengayishini yuzaga keltiradi. Bunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq ish bilan bandlikning innovatsion shakllari: jumladan, masofadan turib ishlash, telebandlik, nostandart ish bilan bandlikning kengayishi, E-bandlikning rivojlanishi, virtual ish joylari, frilansing kabilar tobora ommalashib bormoqda. Integratsiya jarayonlari va globallashtirish, mehnat bozorining axborotlar bilan ta'minlanishi, xodimlarning safarbarligining oshishi va sifat jihatidan yangi ish o'rinlarining paydo bo'lishi ishchi kuchlari va ish beruvchilar o'rtasida raqobatning kuchayishini yuzaga keltirmoqda.

Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida O'zbekistonda mehnat bozori rivojlanishining hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, ish bilan bandlikning davr talabiga mos an'anaviy va zamonaviy shakllari va turlarini keng joriy etish hamda ularning institutsional asoslarini takomillashtirish zarurati tug'ilmoqda.

Investitsiyalar samaradorligining tadbirkorlik sohasida aholi ish bilan bandligini oshirish imkoniyatlari tadqiq qilinishi natijasida quyidagi hududiy guruhlashni amalga oshirdik (2-jadval).

2- jadval

**Jizzax viloyati shahar va tumanlarining ixtisoslashuvi
va drayver sohalari**

T/r	Hududlar nomi	Tuman (shahar)larning drayver sohalari
1	Jizzax shahri	Elektrotexnika, qurilish materiallari, to'qimachilik, issiqxonalarini tashkil etish
2	Arnasoy tumani	Chorvachilik, bog'dorchilik, baliqchilikni rivojlantirish
3	Baxmal tumani	Meva-sabzavotlarni qayta ishlash, chorvachilik, bog'dorchilik
4	Do'stlik tumani	Paxta-g'allachilik, chorvachilik, bog'dorchilik, yengil sanoatni rivojlantirish
5	G'allaorol tumani	Meva-sabzavot, chorvachilik, bog'dorchilik, yengil sanoatni rivojlantirish
6	Zarbdor tumani	Paxta-g'allachilik, chorvachilik, engil sanoatni rivojlantirish
7	Zafarobod tumani	qurilish materiallari va donni qayta ishlashni rivojlantirish
8	Zomin tumani	Oziqovqat, vinosanoat, elektrotexnika, turizmni rivojlantirish
9	Paxtakor tumani	Qishloq xo'jaligi va poliz mahsulotlarini chuqur qayta ishlash
10	Mirzacho'l tumani	Oziq-ovqat va paxta-g'allachilikni rivojlantirish
11	Forish tumani	Uzumchilik va qurilish materiallarini ishlab chiqarish
12	Sharof Rashidov tumani	Oziq-ovqat va to'qimachilikni rivojlantirish
13	Yangiobod tumani	Qurilish materiallari va engil sanoatni rivojlantirish

Investitsiyalar samaradorligining tadbirkorlik sohasida aholi ish bilan bandligini oshirish imkoniyatlari Jizzax viloyatida tumanlar bo'yicha sohalar asosida rivojlantirish imkoniyatlari keltirilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mehnat faoliyatini deyarli barcha jabhalarida yangi ish o'rinlarini yaratish uchun yuqori imkoniyatga ega ekanligi har bir tuman va shaharlardagi mahalliy mineral xom ashyo, moddiy-texnik va mehnat resurslari, ichki bozor sig'imi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash imkoniyatlari bo'yicha aniq maqsadli mezonlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib, Jizzax viloyatida tashkil qilingan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini tarmoqlar bo'yicha shakllanishiga qaraydigan bo'lsak, ularning aksariyat qismi savdo, xizmat ko'rsatish sohalariga taaluqli hisoblanadi. Bizningcha, moddiy xom ashyo resurslari va mehnat resurslari kabi omillarni hisobga olgan holda ularning maqbul sonini aniqlash muammosini yechish kerak.

Bizning fikrimizcha aholining ish bilan bandligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarning bajarilishiga alohida e'tibor qaratish lozim:

- KBXT sohasiga investitsiyalar, shu jumladan chet el investitsiyalarini jalb etishni yanada oshirish;
- Mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmalarini kengaytirish va rivojlantirish;
- Aholining ayniqsa yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash;
- “Har bir oila - tadbirkor” dasturi doirasida aholiga tadbirkorlik ko'nikmalarini o'rgatish uchun “Mahalla-Oila-Hokimiyat” tuzilmalarining tizimli ishlashiga shart-sharoitlar yaratish.

Xulosa va takliflar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga ish bilan bandlikni oshirishning baholash mezonlari yangi ish o'rinlarini yaratish, ijtimoiy adolatlilik, ijodiy boshqaruvchanlik qobiliyatining rivojlanganlik, ishchi kuchi malakasi va kasbiy ko'nikmalarining darajasi, erkinlik, raqobat muhiti, mehnat samaradorligini oshirish darajasiga bog'liq.

Bugungi tadbirkorlik sohasida aholi ish bilan bandligini oshirish imkoniyatlarining hududiy yo'nalishlarini rivojlantirishda mehnat faoliyatini yo'lga qo'yishning quyidagi eng muhim yo'llariga e'tibor qaratish lozim:

- tadbirkorlik faoliyatining yo'lga qo'yish, belgilangan tartibda tashkil etish va tugatishning me'yoriy-huquqiy negizini yanada takomillashtirish;
- fuqarolarning tadbirkorlik faoliyati bilan erkin shug'ullanishlari, undan manfaatdorligining kafolatlari va shart-sharoitlarini tizimlashtirish;
- moliya-kredit tizimini takomillashtirish va korxonalarining xom-ashyo, axborot va innovatsion texnologiyalardan erkin va to'siqlarsiz foydalanish imkoniyatini kengaytirish;
- aholining ayniqsa yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrda “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5853-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.10.2019y., 06/19/5853/3955-son.


2. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. www.lex.uz

3. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti nazariya va amaliyot. Darslik.- T.: O'zR FA “Fan”, 2019. – 475 b -569 b.

4. Jabborova Z.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda mehnat faoliyatini rag'batlantirish yo'nalishlari. “Moliya” ilmiy jurnali, 2020 yil, №4, 153-12 bet



Tashkent state university of economics

 +998 99 881 86 98

 ilmiymaktab@gmail.com

 Tashkent, Uzbekistan

 www.laboreconomics.uz